

Efimizmlar tahlili

Eshmurodova Shahina Ilhom qizi¹, Erbutayeva Shalola²

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikning ajralmas bir qatlami bo'lgan efimizmlar haqida gap boradi. Shu bilan bir qatorda ushbu hodisaning jamiyat va madaniyat bilan bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Maqolada efimizm tasnifi ma'naviy guruhlar hamda efemik vositalar masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Efimizm tushunchasi, efimizm tasnifi, mavzuiy guruhlari, monosemantik va polisemantik efimizmlar.

Efimizm grek tilidan olingan bo'lib, ko'pchilik mualliflarning fikriga ko'ra, noo'rin birlikning o'rinli birlikka almashinuv sifatida qaraladi. Tilshunos A.A. Reformatskiy: "Evfemizmlar taqiqlangan so'zlar o'rniga o'rniga qo'llanishga ruxsat berilgan so'zlar" deya ta'rif beradi. Efimizmlar nutqda salbiy voqealarni to'g'ridan to'g'ri aytishdan qochish, shunday voqealarning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun xizmat qiladi. Kishining nafsiga tegadigan, unga nisbatan hurmatsizlik ifodalaydigan, shuningdek odob qoidalariga zid keladigan yoki ochiqchasiga aytish mumkin bo'lmagan yashirin hodisalarning salbiy ta'sirini kamaytirish, ularni berkitish, noxush xabarni beozorroq shaklda yetkazish uchun foydalaniladi. Masalan, "erga bermoq" so'zini oladigan bo'lsak, bu so'zni nutqda to'g'ridan to'g'ri aytish biroz qo'polroq yoki salbiyroq bo'lishi mumkin. Shuning uchun buning o'rniga turmushga uzatmoq nikolash kuyovga uzatmoq kabilarni qo'llash ancha yaxshiroq. Evfimizmlar miqdor jihatdan rang barangdir. Tilshunos N. Ismatullayev evfemizmlarni besh guruhga ajratgan: tabu bilan bog'liq evfemizmlar, bid'at bilan bogliq evfemizmlar, aytish noqulay bo'lgan so'zlar o'rniga qo'llanadigan evfemizmlar, jargon evfemizmlar va stilistik evfemizmlardir. Evfemizmlar miqdor jihatdan turli xil bolishi bilan. mavzuiy jihatdan ham xilma-xildir. Bular shaxsni anglatuvchi, inson a'zolarini ifodalaydi, biomoddalarni anglatuvchi, insonning jismoniy holatini anglatuvchi, insonning ma'naviy nuqsonini anglatuvchi hamda kishining muomala va munosabatidagi nuqsonlarni anglatuvchi evfemik ifodalardir.

Ba'zan shaxsning jismoniy nuqsonini to'g'ridan to'g'ri aytish o'sha inson uchun kamsitilish hissini paydo qilishi mumkin. Shunday vaziyatlarda evfemik birliklardan foydalanish ancha afzalroq. (garang emas qulog'i og'ir, soqov emas nutqi o'ziga xos va shunga o'xshash).

Tilshunoslikda evfemik vositalar tushunchasi bo'lib, u evfemalarning bir ma'noni va bir nechta nutqiy ma'noni ifodalash uchun ishlatishiga ko'ra monosemantik hamda polisemantik evfemik birliklarga bo'linadi. Monosemantik evfemalar faqatgina bir ma'noni ifodalash uchun foydalanilsa, polisemantik evfemalar esa nutqiy faoliyatda bir nechta ma'noni ifodalab keladi. Masalan A. Qodiriyning Otkan kunlar asarida ushbu birliklarga duch kelamiz: "Toshkandanda kimsan, Yusufbek Hoji deganning **ko'chiman**" Bunda ko'ch(xotin) xalq tilida ishlatib kelingan evfemik ma'noga ega birlikdir. "Haligi Otabek qizga uylanib qo'yg'ach bizning homid tikonga ag'nab **oradan** Otabek bilan Mirzakarim akani **ko'tarish** fikriga tushgan". "Yo qirilib bitish yo Azizbekni **oradan ko'tarishga** fотиha o'qildi". Birinchi jumlada oradan ko'tar so'zi "yo'q qilmoq, o'ldirmoq" ma'nosida, ikkinchisida esa "taxtdan yiqitmoq" ma'nosida kelgan. Demak, birinchi evfemik birlik monosemantik birlik, ikkinchisi polisemantik birlikka misol bo'lar ekan.

Efemizmlar shakliy strukturasi ko'ra so'z shaklidagi efemik vosita va ibora shaklidagi efemik vositaga bo'linadi. Masalan, (ayol, xotin) zaifa, (qo'rqq) yuraksiz, (homilador) yuklik bular so'z shaklidagi efimizmlarga misol bo'la oladi. Ibora shaklidagi efemik vositalar aytiq noqulay bogan narsa

¹ O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Filologiya fakelteti 2-bosqich talabasi

² Ilmiy rahbar



va hodisalarni yumshoq tarzda turg'un birikmalar bilan ifodalanishidir. Biz ushbu efemik vositani Abdulla Qodiriy ijodi asosida tushunib olamiz: "Ammo Yusufbek hoji qirq ikki yoshda olamdan o'tib yoshlik va hayot o'zining yoqimlik narsalaridan birini yo'qotdi". Bu jumlada ijodkor o'z qahramonining vafoti salbiy hodisa bo'lgani uchun buni yumshoqroq tarzda aytish uchun ushbu "olamdan o'tmoq" iborasini qo'llashni ma'qul topgan.

"Kumushni oyog'i yengil bo'ldi degan xuhxabar hammani xursand qildi". Bu jumlada esa yozuvchi birgina "oyog'I yengil boldi" iborasi bilan xalqimizning ibo hayosi, madaniyati qay darada yuksak ekanligini ko'rsatib bera olgan. Demak efimizmlar nutqda uyatli holatlarni oldini olishda ham qo'llanar ekan.

Evfemizmlar nutq jarayonidagi etika talabini saqlab qolish uchun xizmat qiluvchi, salbiy vaziyatlarni tinglovchiga yumshoq tarzda ifodalovchi, shunngdek noqulay vaziyatga tushib qolishning oldini olish uchun qo'llanadigan til qatlamining bir qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbek tilida evfemizm va difemizm" Xurshida Qodirova Toshkent-2022
2. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" Yangi asr avlodi Toshkent -2021
3. uz.wikipedia

